

---

## TUMAN HOKIMI DEHQON BOZORIDA

Qo'shtepa tumani hokimi, birinchi sektor rahbari I.Novikov "Dehqon bozori" MChJda bo'lib, bozorda tashkil etilgan oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi va bozor hududida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.



I.Novikov sotuvchi va xaridorlar bilan suhbatlashdi. Sotuvchilarga savdo, sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish, ayniqsa narx-navoni sun'iy oshirib yubormaslik bo'yicha tavsiyalar berdi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2021-02-01 11:33:10